IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

YER HISOBINI YURITISHDA GAT DASTURLARINING AHAMIYATI VA O‘RNI

Sh.Bobomurodova

assistent

Bunyodbek Kattabekov,Abdunazarov Sherbek

talaba

Annotatsiya

Bu maqola bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan yerlar xisobini yuritishda GAT dasturlaridan foydalanish orqali yerlardan oqilona va samarali foydalanish uchun ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Абстрактный

Данная статья посвящена разработке научно-практических предложений и рекомендаций по рациональному и эффективному использованию земель за счет использования программ ГАТ при учете земель, что является одним из наиболее актуальных вопросов современности.

Abstract

This article is dedicated to the development of scientific and practical proposals and recommendations for the rational and effective use of land through the use of GAT programs in land accounting, which is one of the most urgent issues of today.

O‘zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanish maqsadi va xarakteridan qat’iy nazar, yer xisobi ob’ekti hisoblanadi. Chunki yer, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari tizimida va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda asosiy vosita hamda manbaa hisoblanadi. Shu bois u aholi hayoti, faoliyati va farovonligida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

2017-yil 31-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan yerlardan foydalanishda muntazam davlat nazoratini ta’minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Shu sababli yer hisobini yuritishda GAT texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

ArcGis tizimning afzalliklaridan biri uning qidiruv darchasining mavjudligidadir. Ushbu darcha asosida tez sur’atlarda yerdan foydalanuvchilarning kartografik va atributiv ma’lumotlarini topishimiz mumkin bo‘ladi.

ArcInfo tarkibidagi qator modullar kartalarni sonli asosga o‘tkazish, har xil shakllardagi ma’lumotlarni almashish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, kartalarni ishlash va ularni ekranda ko‘rsatish, ma’lumotlarni guruhlash, ishlangan tavsifiy ma’lumotlarni jadval shaklida berish, har xil so‘rovlarni shpkllantirish, interaktiv grafikaviy tahrirlash, ob’ektlarni manzillari va nomlari bo‘yicha

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

topish, optimal yechimlarni topish bo‘yicha masalalarni yechish, qattiq asoslarda kartalarni tayyorlab chiqarishni ta’minlaydi. Bu tizimning kamchiliklariga grafikaviy ishlov berish tezligining pastligi va foydalanuvchilar uchun ma’lum darajadagi yopiqligi kiradi.

Hozirgi kunda geoaxborot tizimi ham jadal sur’atlar bilan o‘sib borishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki hayotimizning turli sohalarida ham qo‘llanib kelinmoqda. GAT ning qo‘llanilish sohalari keng bo‘lib, u turli holatlarda, yuk tashish bilan shug‘ullanadigan korxonalar uchun yo‘l marshrutlari va jadvallarini tuzish hamda aniqlashda, avtomobil yo‘llarini quruvchi korxonalarga, yangi trassa va yo‘llarni loyihalashda eng maqbul variantini tanlash paytida, shuningdek, davlat fondidagi yerlarni to‘g‘ri va oqilona hisoblashda, fermerlar uchun yangi yerlarni o‘zlashtirishda, yerlarning xolatini aniqlash va ular to‘g‘risida yetarli malumot olishda va albatta yer monitoringini yuritishda juda qo‘l keladi.

Qishloq xo‘jalik massivida yer xisobini yuritish maydonlardan foydalanishni tashkil etishda muhim amaliy ahamiyatga egadir, negaki massiv chegarasidagi yer maydonlarini umumiy maydonlar bo‘yicha doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Bu tabiiy hol, ma’lum qonuniyatdir, chunki joylardagi aholi sonining o‘sishi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish miqdorlarini ko‘paytirib borishga ehtiyoj va umumiy qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabni doimiy oshib borishi qishloq xo‘jaligiga iloji boricha har yili yer qo‘shib borish zaruriyatini tug‘diradi. Bugungi kunda xech bir ish ayniqsa yer resurslarini zamonaviy texnologiyalarsiz boshqarib ham, tassavvur etib ham bo‘lmaydi.
GAT bazasi respublika yer resurslarini boshqarish maqsadida yer kadastri va yer monitoringini o‘tkazishdagi kuzatuv tadqiqot natijalarini yig‘ish, to‘plash va taxlil qilish orqali yer fondlari holati to‘g‘risida tezkor ma’lumotlarni olishga mo‘ljallangan.

GAT dasturi yer resurslari to‘g‘risidagi axborotlardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

GAT tizimining asosini joyning elektron xaritasi (plani) tashkil etadi. U ob’ektning fazoda uch o‘lchamli joylashishini tavsiflovchi rel’efning sonli modeli asosida tuziladi. Fazoviy ma’lumotlar ko‘plab dasturiy mahsulotlarda foydalaniladi masalan, *AutoCAD, Surfer* va boshqalar, lekin GAT har xil boshqarish yechimlarini boshqarish yechimlarini amalga oshirish bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega. Ular yangi ma’lumotlarni yig‘ish, bor ma’lumotlarni yangilash, yig‘ilgan ma’lumotlarni har xil shakllarga aylantirish, ularni kenglik va vaqt bo‘yicha tahll qilish, har xil ob’ektlarni modellashtirish va kenglikda joylashtirish hamda olingan natijalarni kompyuter monitorida ko‘rsatish va an’anaviy imkoniyatlarda kartalar, planlar, jadvallar, chizmalar, grafiklar chop etib olish imkoniyatlarini beradi.

Geoaxborot tizimlarini yaratish yer tuzishni loyihalash va kortografiya avtomatlashtirish masalalarini yechish uchun nisbatan keng tarqalgan vosita Amerika atrof muhit tizimlarin o‘rganish institutida ishlangan dasturiy mahsulot *ArcInfo* hisoblanadi.

- ❖ davlat yer kadastri yuritish;
- ❖ Yer monitoringini yuritish;

Yer resurslari to‘g‘risidagi yagona axborotlar bazasini yaratish ishlari natijasida yer kadastri va yer monitoringini o‘tkazishda foydalanilgan yerlarda o‘tkazilgan tuproq, geobotanik, gidrogeologik va boshqa tadqiqotlar, yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, yerlarni miqdoriy hisobga olish,

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

tuproq bonitirovkasi va yerlarning qiymat baholari ma'lumotlaridan tashkil topgan respublika yer resurslarini boshqarishning markaziy axborotlar tizimi yaratiladi.

- ❖ yer resurslarini boshkarishga doir funksiyalarni amalga oshirish va h.k.
- ❖ yer resurslarini davlat tomonidan nazorat qilish;
- ❖ yer tuzish ishlarini tashkil qilish;

Yer tuzishda avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratishni geografik axborot tizimlaridan keng foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

- ❖ yer fondidan maqsadli va oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Yerlar hisobini yuritishda geoaxborot tizimlari muhim ahamiyatga ega. To'la miqyosli geoaxborot tizimlarini yaratish vositalariga ega dasturiy mahsulotlarga Arc/Info, ArcView 3.5 gacha Map info, GeoMedia Professional mahsulotlarini kiritish mumkin.

- ❖ yerlarni muxofaza qilish tadbirlarini o'tkazish;

Xulosa

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning rivojlanishini hisobga olib, tabiiy va xo'jalik resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda hududlarning tabiiy iqtisodiy salohiyatini majmuaviy tahlil qilish va baholash eng zarur masalalardan biri hisoblanadi. Yer hisobi davlat yer kadastrining tarkibiy qismi bo'lgani holda xo'jalik hisobining bir turi hisoblanadi. Yerlarni hisob qilishda ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida bir tomondan, umumiylik mavjud, ikkinchi tomondan o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Safarov E., Musayev I. Geoaxborot tizimi va texnologiyalar. T.,TIMI, 2008, -160 b.

2. Abduraxmonov S.N., Muxtorov O'.B., Abdisamatov O.S., Jo'rayev A.Y., Inamov A.N. "Geoaxborot tizim va texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent 2020.

3.O'.Muxtorov, A.Inamov, J.Lapasov. "Geoaxborot tizim va texnologiyalar" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. T. TIMI, 2017.